

**ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY ME'ROSI VA UNING PEDAGOGIK  
FIKIR TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI***Jabborova Munisa Baxtiyor qizi**Ziyodullayeva Gulasal Alisher qizi**University of Management and Future Technologies  
universiteti, PS /S-23-1- guruh, Psixologiya  
yo'nalishi, 3- kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq uyg'onish davrining buyuk qomusiy olimi «Abu Rayhon Beruniyning» ilmiy me'rosi hamda uning pedagogik fikr taraqqiyotidagi komplikis tahlil qilinadi. Beruniyning ilmiy metodologik qarashlari, bilish nazariyasiga oid g'oyalari va ta'lim -tarbiya masalalariga osyondashuvi ilmiylik, obyektivlik va tajribaviylik tamoyillari asosida yoritib beriladi. Shuningdek olimning pedagogik qarashlarining zamonaviy ta'lim konsepsiyalari bilan uyg'un jihatlari ochib berilib, uning ilmiy me'rosining bugungi ta'lim tizimidagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, ilmiy me'ros, pedagogik fikr, bilish nazariyasi, ilmiy metodologiya, tajriba va kuzatish, ta'lim tarbiya, sharq uyg'onish davri.

Jahon ilim fani va madaniyati taraqqiyotida sharq uyg'onish davri alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda yetishib chiqqan buyuk allomalar insoniyat tafakkurining rivojiga beqiyos hissa qo'shganlar. Ana shunday mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al -Beruniy (973-1048) bo'lib, u o'zining chuqur ilmiy izlanishlari, keng qamrovli asarlari va ilg'or metodologik yondashuvlari bilan ajlali turadi. Beruniyning ilmiy me'rosi nafaqat tabiiy fanlar, balki pedagogik tafakkur taraqqiyotida ham muhim nazariy manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq ilmiy asarlari Asarlar yaratib, astranomiya, matematika, geografiya, geodeziya, tarix, etnografiya, meneralogiya va falsafa fanlarining rivojiga unkan hissa qo'shgan. Uning ilmiy faoliyatida empirik bilish usuli yetakchi o'rinni egallaydi. Beruniy ilmiy haqiqatda erishishda kuzatish, tajriba va aniq o'lchovlarga tayangan. Bu metodologik yondashuv pedagogik nazardan o'quvchilarda ilmiy tafakkur hshmantiqiy tahlil va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakillantirishga xizmat qiladi. Beruniyning fikricha, ilim insonni jaholat etuvchi eng qudratli vosita bo'lib, u faqat ongli va izchil ta'lim jarayonida shakillanadi. Beruniy bilish jarayonini murakkab va ko'p bosqichli hodisa talqin etadi. U bilishni sezgi, aqil va tajribaning uzviy birligi deb hisoblaydi. Olimning ushbu qarashlari hozirgi pedagogikasida keng qo'llanilayotgan faol ta'lim tamoyillariga mos keladi. Beruniyning «Hindiston» asarida bayon etilgan pedagogik tolerantlik g'oyalari bugungi muammolarda alohida

dolzarblik kasb etadi. Beruniyning pedagogik qarashlari-garchi Beruniy pedagogik asar yozmagan bo'lsada, uning ilmiy -falsafiy qarashlarida ta'lim va tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. U bilim olish jarayonida inson aqil -zakovat, mustaqil fikrlash va ilimga bo'lgan ichki ehtiyojni asosiy omil deb biladi. Beruniy ta'lim jarayonida bilimning izchilligi va tizimlilikini, o'qitishda yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishni ilimni hayot bilan bog'lab urganishni muhim pedagogik tamoyillari sifatida ilgari suradi. Ustoz va shogird munosabatlariga to'xtalar ekan, Beruniy o'qituvchining nafaqat bilimli, balki axloqan yetuk bo'lishini ham talab qiladi. Uning fikricha, haqiqiy ustoz shogirdiga ilim bilan birga halollik, sabir toqat va haqiqatga intilish fazilatlarini ham sindirishi lozim.

Beruniyning ilmiga bo'lgan munosabati tanqidiy tafakkurga asoslangan yondashuvi va ta'limda erkin fikrni targ'ib etishni keyingi pedagogik tafakkur rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. U o'z davridayoq fanlararo integratsiya g'oyasini ilgari surib, ta'limda kompleks yondashuv zarurligini asoslab bergan. Abu Rayhon Beruniy Sharq pedagogik tafakkurini yangi bosqichga olib chiqqan mutafakkirdir. U ta'limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish vositasi sifatida talqin qiladi. Beruniyning pedagogik qarashlari keyingi davr mutafakkirlari Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalar ilmiy pedagogik qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

### **Xulosa**

Abu Rayhon Beruniy nafaqat buyuk qomusiy olim, balki chuqur pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim nazariy va metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Beruniy ilgari surgan ilmiylik, tajribaviylik va mustaqillik fikrlash g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .**

1. Xaydarov. S.A.(2026). Pedagogik risklarni boshqarishda globallashuv jarayonlarning ahamiyati. International scientific journal. Interpretation and researches. 1(73).
2. Xaydarov. S.A. (2026). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 3(1). 159-164.
3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.

6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Xaydarov S.A. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.
9. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar -Toshkent :Fan 1968.
10. Abu Rayhon Beruniy. „Hindiston ” -Toshkent Fan 1963.
11. Karimov I.A „ Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ” -Toshkent ma’naviyat Fan 2008.
12. Xayrullayev M.M sharq mutafakkirlari pedagogik qarashlari -Toshkent o‘qituvchi,1994.
13. Qosimov B. Sodiqov A.-pedagogika tarixi -Toshkent: Sharq 2007.
14. Jalolov J.Pedagogik tafakkur taraqqiyoti -Toshkent:Fan va texnologiya, 2012.